

MENEJMENT NAZARIYASI ASOSIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISHNING TARIXI

M.Q.Mamayusupova – o'qituvchi

Namangan davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: umumiy o'rta ta'lim, boshqaruv, boshqaruv evolyutsiyasi, ta'lim tashkilotlari, ta'lim tizimi, ta'lim va tarbiya, boshqaruv metodlari, pedagogik boshqaruv, menejment maktabi.

Ключевые слова: общее среднее образование, управление, эволюция управления, образовательные организации, образовательная система, образование и воспитание, методы управления, педагогическое управление, школа менеджмента.

Key words: general secondary education, management, management evolution, educational institutions, educational system, education and upbringing, management methods, pedagogical management, school of management.

Ta'lim va tarbiya tushunchalarining o'zaro birligi va ajralmasligi, ya'ni ularni yaxlit holda tushunish zaruriyati umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilari uchun tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarining tizimga xos xususiyatlarga ega ekanligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasining yangilangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasida umumiy o'rta ta'lim turli bo'limlarga ajratilgan.

"Umumiy o'rta ta'lim (I – XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich ta'lim (I – IV sinflar);

tayanch o'rta ta'lim (V – IX sinflar);

o'rta ta'lim (X – XI sinflar)" [1], deb keltirilishi ham umumiy o'rta ta'lim uch bosqichdan iborat bo'lgan tizim ekanligini va bu bosqichlarni o'zaro bog'liqligini ta'minlash uning tizimga xos xususiyatlarga ega ekanligini ifodalaydi.

Demak, uzluksiz ta'lim tizimi asosiy turlaridan biri bo'lgan umumiy o'rta ta'limning har bir bosqichlarida ham tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari dars mashg'ulotlari hisoblanadigan nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, sinfdan tashqari mashg'ulotlar hisoblanadigan to'garak mashg'ulotlari, davra suhbatlari, uchrashuvlar, intellektual-ijodiy tadbirlar, fanlar olimpiadalari, sport musobaqalari va tanlovlar, san'at festivallari, fan kechalari hamda maktabdan tashqari mashg'ulotlar hisoblanadigan ekskursiya va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, mustaqil ta'lim va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini qamrab oladi. Mazkur ta'lim jarayonlari ham tizimga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlashning zarurati umumiy o'rta ta'lim jarayonlarini yaxlit holda tizim sifatida tavsiflashga asos bo'ladi.

"O'z-o'zini tarbiyalash ichki tuyg'ular yordamida milliy qadriyatlarni, inson hayotidagi yutuq va muammolarni, tajribalarni o'rganish, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ya'ni mustaqil rivojlanish jarayonidir" [6:16]. Ta'lim-tarbiya jarayoni qanday tashkil etilmasin, o'z o'zini tarbiyalashsiz uni amalga oshirib bo'lmaydi.

Mustaqil ma'lumot avlodlar tajribasini, fan-texnika yutuqlarini o'z ichki tuyg'ulari asosida mustaqil o'rganishga qaratilgan harakatlar majmuining natijasi bo'lib, insonning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Mustaqil ma'lumot inson shaxsi

rivojlanishida, tajribalarni egallashida qulayliklar yaratilsa, mustaqil ta'lim esa ta'lim olishning asosi hisoblanadi.

"Mustaqil ta'lim – bu insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida avlodlar tajribasini, fan-texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, mustaqil fikrlash qobiliyati asosiy rol o'ynaydi" [2:235]. Demak, umumiy o'rta ta'lim jarayonlari samaradorligi nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga, balki mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish, hozirda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar va bajarilayotgan ishlar bo'lajak mutaxassislar o'zlari uchun zarur bo'lgan barcha axborot hamda ma'lumotlarni mustaqil topish va yig'ish mahoratini, ularni tahlil eta olish malakasini egallagan bo'lishlarini xayotning o'zi taqozo etmoqda.

"Tarbiyaviy munosabatlar insonlarning o'zaro tajriba almashinishi, tajribalarni o'zlashtirishi, qo'llashi, ular o'rtasidagi doimiy munosabat, ya'ni aloqalar tizimi bo'lib, inson-inson, inson-texnika-inson, inson-kitob-inson, inson-tabiati-inson, inson-san'at-inson kabi tarbiyaviy munosabatlar shaklida vujudga keladi va mazkur jarayonda inson ikkinchi bir insonga bevosita o'zining xatti-harakatlari bilan yoki vositalar yordamida ta'sir o'tkazishi mumkin, bu jarayon ixtiyoriy ta'lim tashkilotlaridagi rahbarlar bilan xodimlar, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni ham qamrab oladi" [3:74].

Tarbiyaviy munosabatlar insonlar o'rtasidagi doimiy munosabat (aloqalar) bo'lib, ular inson shaxsini rivojlantirishga, ya'ni mustaqil ma'lumot, mustaqil ta'lim olish va o'z-o'zini tarbiyalashni shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, bu pedagogik jarayon hisoblanadigan insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda turli shakllarda namoyon bo'ladi, ya'ni mazkur jarayonda ishtirok etayotgan ma'lum bir insonning bilimi, muomala va muloqot madaniyati, kiyinishi, gavda harakatlari, qobiliyati, fan-texnika, san'at va tabiatga bo'lgan munosabati hamda qiziqishi ikkinchi bir insonga va boshqa insonlarning faoliyatiga, ya'ni fikrlashi, tasavvuri va dunyoqarashining o'zgarishiga hamda tafakkurining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Boshqaruv ilmiy fan sifatida evolyusiya yo'li bilan tashkil bo'ldi. Bu tarixiy yo'lda menejmentni

Menejment tizimining shakllanishi, faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun ko'rsatib o'tilgan asosiy tamoyillardan tashqari yana qo'shimcha tamoyillarga rioya qilish zarur, ular boshqaruv tizimining barcha tizimlari uchun umumiy hisoblanadilar.

O'zbekiston qadimgi taraqqiyot mamlakati. Uning hududida arxeologik va me'morchilikga oid minglab yodgorliklar saqlanib qolgan, ilmiy markazlar va muzeylarda o'lkani ko'p asrlik tarixidan guvohlik beruvchi ko'p miqdordagi qo'lyozma va ashyolar saqlanmoqda.

Pedagog olim S.Karimov fikrlariga ko'ra "Avesto"da jamiyatni boshqarish uchun Ilohiy Nizom va odil Nizom zarurligi aytilib, davlat mahkamalarida va jamoat tashkilotlaridagi barcha yo'nalishlar shu Nizomlar doirasida faoliyat

ko'rsatishlari kerak bo'ladi. Bu ta'limotlar tizimini zardushtiylar o'zlarining ilohiy uchlik, ya'ni – ezgu so'z, ezgu fikr, ezgu amal tamoyillarida mujassamlashtirgan" [5:37].

Mamlakatimizda menejment nazariyasi va amaliyotining rivojlanishiga xissa kushgan akademiklar M.Sharifxujaev, S.S.Gulomov, R.X.Djuraev, professorlar Sh.M.Zaynuddinov, Yo.A.Abdullaev, K.A.Abduraxmonov, ta'lim menejmentining rivojlantirish yunalishida professorlar Sh.Kurbonov, J.G.Yuldoshev, R.ShAxlidinov, E.Seytxalilov, M.Kuronov, S.T.Turgunov, L.V.Peregudov, M.X.Saidov, U.L.Inoyatov, X.F.Rashidov va boshka kator olimlarning mazkur soxadagi tadqiqotlari va ilmiy ishlarini urganish aloxida axamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni 2020 yil 23 sentabr, O'RQ-637-son
2. Джураев Р.Х., Тургунов С.Т. Таълим менежменти ўқув қўлланма. –Тошкент: «Voris» 2006. 235-б.
3. Акмалова Д.Т. Обеспечение эффективности деятельности субъектов педагогического процесса посредством применения технологий системного подхода. Ученый XXI века. Международный научный журнал № 5-1 (86), апрель 2022 год, -С. 71-74
4. Turg'unov S.T., Akmalova D.T. Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlarini takomillashtirish strategiyalari. Xalq ta'limi. O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. №6 (Maxsus son). –Toshkent: 2021. 6-12-б.
5. Pardaev O.M. Menejment. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2019. 37-b.
6. Sharifxujaev M., Abdullaev Yo. Menejment. -T.: "O'qituvchi", 2001, 16-b.

REZYUME. Ushbu mavzu ta'lim tizimini rivojlantirishda boshqaruvning murakkabligi va uning har bir tarixiy davridagi o'zgarishlar, zamonaviy boshqaruv usullari va innovatsion yondashuvlar bilan bog'liqligini tahlil qiladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируется сложность управления в развитии системы образования и ее связь с изменениями в каждый исторический период, современными методами управления и инновационными подходами.

SUMMARY. This topic analyzes the complexity of management in the development of the educational system, changes in management practices at different historical stages, and their connection with modern management methods and innovative approaches.

TA'LIMDA SIFATLI BAHOLASH: O'Z-O'ZINI BAHOLASH VA NOSTANDART YONDASHUVLAR

N.G.Meyliyeva – *assistent o'qituvchi*

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: ta'lim, baholash, inson kapitali, sifat, pedagog, o'z-o'zini baholash, nostandart baholash, ipsativ baholash, fidbek, innovatsion yondashuv, Benjamin Bloom, taksonomiya, ta'lim jarayoni, samaradorlik, rivojlanish.

Ключевые слова: образование, оценивание, человеческий капитал, качество, педагог, самооценка, нестандартное оценивание, ипсативное оценивание, обратная связь, инновационный подход, Бенжамин Блум, таксономия, образовательный процесс, эффективность, развитие.

Key words: education, assessment, human capital, quality, pedagogue, self-assessment, non-standard assessment, ipsative assessment, feedback, innovative approach, Benjamin Bloom, taxonomy, educational process, efficiency, development.

Kirish. Oliy ta'lim tizimida yuzaga kelgan muammolarni qisqa muddatda bartaraf etish yuzasidan keyingi yillarda sohani tubdan isloh etish, tizimli islohotlarni amalga oshirish va jahon standartlariga moslashtirish borasida aniq, izchil va keng ko'lamli kompleks choralar amalga oshirildi. Soha taraqqiyoti-

ga yo'naltirilgan qonunlar, o'nlab muhim farmon, qaror va dasturlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar